



O'ZBEKISTONDA SOLIQQA TORTISHNIG MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARI VA XORIY TAJRIBASI

Jumaniyazova Feruza Rajabovna

Xalqaro moliya va texnologiyalar maktabi
nodavlat oliy ta'lim muassasasi
ORCID: 0000-0002-1838-3746
feruzalisher@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim jihatlari, soliqqa tortishda xorijiy mamlakatlar tajribasi shu bilan birga xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, g'oyalari o'rganildi. Soliqqa tortish borasida xorij tajribalari tahlil qilinib, amaliyotga qo'llash mumkin bo'lgan yo'nalishlar taklifi keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: soliq, soliq bazasi, davlat budjeti, soliq to'lovchilar ma'daniyati, risklar, soliqdan qochish, moliyaviy siyosat, korxonalar, iqtisodiyot.

ВАЖНЕЙШИЕ ПРИОРИТЕТЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Жуманиязова Феруза Раджабовна

Международная школа финансовых технологий
и науки негосударственное высшее учебное заведение

Аннотация. В данной статье изучены важные аспекты совершенствования системы налогообложения в нашей стране, опыт зарубежных стран в области налогообложения, а также научно-теоретические взгляды и идеи зарубежных и отечественных ученых. Проанализирован зарубежный опыт налогообложения и предложены направления, которые можно реализовать на практике.

Ключевые слова: налог, налоговая база, государственный бюджет, культура налогоплательщиков, риски, уклонение от уплаты налогов, финансовая политика, предприятие, экономика.

IMPORTANT PRIORITIES AND FOREIGN EXPERIENCE OF TAXATION IN UZBEKISTAN

Jumaniyazova Feruza Rajabovna

International School of Finance Technology and
Science Non-State Higher Education Institution

Annotation. In this article, the important aspects of improving the taxation system in our country, the experience of foreign countries in taxation, as well as the scientific and theoretical views and ideas of foreign and local scientists were studied. Foreign experiences in taxation were analyzed, and directions that could be put into practice were suggested.

Keywords: tax, tax base, state budget, taxpayer administration, risks, tax evasion, financial policy, enterprise, economy.

Kirish.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Davlatning moliyaviy siyosatida ijtimoiy xizmatlarning asosiy manbai bo'lgan davlat byudjeti daromadlarini to'g'ri aniqlash va unga muvofiq ravishda xarajatlar siyosatida mutanosiblikni ta'minlash dunyodagi barcha davlatlarning asosiy funksiyalari sifatida o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Jahon bozoridagi beqarorlikning saqlanib qolishi, dunyo miqyosida umumiy tashqi va ichki qarzдорlikning oshib borishi, davlat byudjetiga o'z ta'sirini o'tkazib bormoqda.

Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati — insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi to'g'risidagi Farmonda (2018-yil 29-iyundagi, PF5468-sonli farmon): iqtisodiyotda soliq yuki darajasini kamaytirish, shuningdek soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi (Farmon, 2018).

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar nechog'lik ahamiyatli bo'lsa, mazkur soliqlarni muntazam, o'z vaqtida va to'liq byudjetga kelib tushishini ta'minlash maqsadida, soliq risklarini boshqarish ham shu darajada muhimdir. Shuning uchun mazkur mavzu bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirgan holda bu boradagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi hozirda muhim va dolzarb masalalardan biriga aylangan (Mamadaminov, 2019).

Adabiyotlar sharhi.

Hebousning (2023) keltirib o'tishicha kam soliqqa tortiladigan mamlakat uchun majburiy minimal samarali stavkani ishlab chiqish farovonlikka olib keladi va mamlakatga kelib tushadigan tushumlarni statistik baholashga imkon beradi. Soliq to'lovchilar ham minimal stavkada soliqdan qochmaydilar.

Erizal (2022) va boshqalar davlat soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini davlat bilan hal qilish imkoniyatini yaratib berishi uchun yetarlicha imkoniyatlar berishi kerak. Shu bilan davlat soliq to'lovchilarga ko'proq daromad olish va daromadini soliqdan yashirmaslikka undashi mumkin deb keltiradi.

Bayborodina (2010) "soliqqa tortish islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

Bogatirevaning (2014) fikricha, "soliqqa tortish islohoti bu davlat soliq tizimidagi qonuniy ravishda belgilangan o'zgarish, bu davlat soliq siyosati strategiyasini o'zgartirishga asoslanadi. Shunday qilib, soliq siyosati taktikasining o'zgarishi soliqqa tortish islohotiga olib kelmaydi. Faqat soliq tizimiga tegishli amaldagi qonunchilikdagi o'zgartirish va qo'shimchalar sifatida ko'rib chiqiladi. Soliq siyosati strategiyasidagi o'zgarishlar mamlakatda soliqqa tortish islohotlarini amalga oshirish uchun asosdir.

Tuychiyev (2023) soliqqa tortish stavkasining yuqoriligi juda ahamiyatligini keltirib o'tadi va iqtisodiyotda biznesni boshlash va yopish moyilligiga ta'sir qiladi, tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarini to'liq yoki qisman yashirishga

harakat qilishadi, tadbirkorlik va biznes investitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb keltiradi ya'ni past soliq stavkasini taklif qiladi.

Isayev (2023) soliqqa tortishda soliq imtiyozlari qo'llashni taklif etadi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun davlatlar tomonidan keng qo'llaniladigan vosita deb biladi. Soliq imtiyozlari butun dunyo bo'ylab davlatlar tomonidan investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish va ish o'rinlarini yaratish uchun qo'llanilishi haqida aytib o'tgan.

Jo'rayev (2005) fikricha, g'arb iqtisodchilari soliqqa tortish mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliqqa tortish tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondashadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi - deb ta'kidlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada soliqqa tortish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganildi. Soliqqa tortishni takomillashtirishda va xorij tajribalaridan foydalanish masalalari yoritib berishda, qiyosiy, tarkibiy, analitik va statistik ma'lumotlar tahlilidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"2022-yil uchun davlat byudjeti asosiy ko'rsatkichlar tahlili asosida davlat byudjeti daromadlari 200 trln. so'm yoki YaIMning 23,8%i miqdorida belgilandi. Ulardan soliq tushumlari 68,5 trln. so'm, shu jumladan JShDS - 22 trln. so'mni tashkil etadi".

2022-yilning birinchi choragida O'zbekiston aholisining real daromadlari o'sishi 3,3 foizgacha sekinlashdi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 7,7 foizga teng bo'lgandi. Aholining daromadlar tarkibida pul o'tkazmalarining ulushi kamaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga umumiy daromad 3,2 mln. so'mgacha ko'tarildi. 2022-yilning ilk uch oyida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 3,2 mln. so'mgacha ko'tarildi. Nominal ko'rinishda tushumlar 13,6 foizga, real qiymatda 3,3 foizga (iste'mol narxlarini hisobga olgan holda) o'sdi. Bu ko'rsatkichlar ham 2021-yilning birinchi choragiga - 19,8% va 7,7% nisbatan kamroq hisoblanadi. Ishchilarning daromadlari umumiy daromadning 32,8 foizini tashkil qiladi⁹.

Ta'kidlash joizki, har bir mamlakatda soliqlar tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa omillar tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, daromad solig'ining (income tax) vatani bo'lgan Buyuk Britaniyada 1973-yildagi soliq islohoti orqali shaxsiy daromadlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimi joriy etildi. Buyuk Britaniyada soliqqa tortish rejimi jismoniy shaxsning rezident, oddiy rezident yoki yashash joyi maqomiga ega bo'lishiga bevosita bog'liq (Romanova, 2014).

"Oddiy rezident" (ordinarily resident) - Buyuk Britaniyada uch yildan ortiq istiqomat qilgan shaxs yoki mamlakatga kelganidan keyin uch yildan ortiq qolish niyatini bildirgan shaxs. Yashash joyi maqomi Britaniya huquqi konsepsiyasiga muvofiq belgilanadi: agar shaxs Buyuk Britaniyada tug'ilgan bo'lsa, u britaniyalik ota-ona oilasida tug'ilgan bo'lsa, Buyuk Britaniyada doimiy mavqega ega bo'ladi (Kostileva, 2011).

AQShda soliqlar federal soliqlar, shtat soliqlari va mahalliy soliqlarning bir qismi hisoblanadi, ya'ni hokimiyatning barcha tarmoqlari orasida taqsimlangan bo'ladi. Soliqlar jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi korxonalar va yuridik shaxslar bilan bog'liq bo'lmagan sheriklik asosida to'lanadi. Jismoniy shaxslar turlicha soliq maqomiga ega bo'ladilar, bunda tegishli chegirmalar belgilanadi: qo'shma deklaratsiyani to'ldirgan er-xotinlar; alohida soliq deklaratsiyasini to'ldirgan er-xotinlar; oila boshliqlari; yolg'iz soliq to'lovchilar; beva ayollar, beva erkaklar (Xudoyqulov, 2022).

⁹ <https://review.uz/oz/post/gosbyudjet-na-2022-god-analiz-osnovnx-pokazateley>

AQShda soliqqa tortish jarayonida ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning, ish bilan band bo'lganlarning ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq ish kiyimlari, transport va boshqa xarajatlar chegirib tashlanadi. Daromadlarning ayrim turlari to'liq yoki qisman: uzoq muddatli kapital aktivlarini sotishdan olingan daromadning 50 foizi, davlat yoki mahalliy hukumatlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizlar, davlat va xususiy ijtimoiy sug'urta fondlaridan olinuvchi to'lovlarning ayrim turlari chiqarib tashlanadi. Soliq to'lovchi daromadlardan odatdagi chegirmalar o'rniga xarajatlarni moddalar bo'yicha hisobga olishda foydalanishi mumkin: shaxsiy qarzlari va mulk garovi sifatida ipoteka qarzlari bo'yicha foizlar; tibbiy xarajatlar; xayriya fondlariga badallar; malaka oshirish, sayohat xarajatlari; davlat soliqlari va mahalliy soliqlar; yangi yashash joyiga ko'chish xarajatlari (Terentyeva, 2005) va boshqalar.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda soliqqa tortishda risk zonalari

Mamlakat	Soliq risklarining asosiy zonalari
Avstraliya	Xizmatlarga oldindan to'lash variantidan foydalangan holda soliqqa tortishdan bo'yin tovlashga yo'naltirilgan soliq sxemalari; yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanishi; kompaniya aktivlarini o'stirishga yo'naltirilgan sxemalar (mehnatga haq to'lashni o'zgartirish, ofshorlardan foydalanish, «nozik kapitalizatsiya» instrumenti)
Buyuk Britaniya	Zararlarni sun'iy yaratmoq; aktiv va daromadlarni yashirish maqsadida ofshorlarning bank hisobvaraqlaridan foydalanish
Germaniya	Daromadlarni past solikli yurisdiksiyalarga o'tkazish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; doimiy hukumatlarning xorijiy tashkilotlar tomonidan soliqlardan qochishi
Italiya	Ofshor va trastlar (ishonchli mulk) dan foydalaniladigan sxemalar, milliy vaxalqaro darajadagi kompleks shartnomaviy sxemalar; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish
Kanada	Daromadlarni sun'iy pasaytirishga va aktivlar qiymatini sun'iy oshirishga yo'naltirilgan bitimlar, xarajatlarni oshirib ko'rsatish, zararlarni oshirish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; soliq imtiyozlarini noqonuniy qo'llash; ofshorlardan foydalanish, transfert narxlarini shakllantirish; qasddan bankrotlikka olib kelish
Janubiy Koreya	«Savdo bitimlaridan» foydalaniladigan sxemalar; ofshorlardan foydalangan holda soliq solishdan bo'yin tovlash; sun'iy zararlarni paydo qilishga va soliqlarni to'lashni kechiktirishga yo'naltirilgan qalbaki qimmatli qog'ozlarsxemasidan foydalanish
Niderlandiya	Soliq bazasini noto'g'ri ko'rsatishga yo'naltirilgan sxemalar; ofshorlar; yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar va salmoqli qiymatga ega ularning mulklari
AQSh	Soliq qonunchiligining kamchiliklaridan foydalaniladigan sxemalar; daromad yashirish uchun ofshor tuzilmalardan foydalangan holda soliqlardan bo'yin tovlash, sun'iy xarajatlar va zararlarni paydo qilish
Fransiya	Juda katta miqdorda soliqqa oid huquqbuzarliklar, ayniqsa xalqaro darajada; iqtisodiy faoliyatni deklaratsiya qilmaslik
Shvetsiya	Ofshorlar, bank kartalari va chet el xolding kompaniyalardan foydalaniladigan sxemalar, (jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznesga); tijorat mulklari, zayomlari bilan sxemalar (kompaniyalar)
Yaponiya	Xorijiy davlatlarning soliq tizimidagi imtiyozli holatlar va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilishga asoslangan soliqlarni rejalashtirishning xalqaro sxemalari; xorijiy «bir kunlik firmalar»dan foydalanish; sxemalarda yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanish

Manba: ma'lumotlar asosida muallif tomonidan qayta ishlandi.

Fransiyada soliqqa tortishda soliq imtiyozlarining keng tizimi mavjud: professional, oilaviy, ijtimoiy, mulkiy. Fransiyada daromad solig'i stavkasi ilg'or bo'lganligi sababli, ushlab qolish hajmi qo'llaniluvchi stavkaga ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, Fransiyada bu soliqni to'lashdan butunlay ozod bo'lgan kishilar toifasi mavjud ular ma'lum daromaddan kam daromadga ega jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Rossiyada esa 2021-yil 1-yanvardan har bir jismoniy shaxs ish haqi miqdoridan qat'iy nazar 13 % miqdorida soliq to'lashi shart bo'lgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish holatini tahlil etadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan davlatlar orasida Rossiyaning tajribasi ancha ilg'or, aniq va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida prognoz metodlarining hamda hisoblash usullarining belgilab qo'yilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va buning huquqiy asosi sifatida Rossiya Federatsiyasining kelgusi moliya yili va rejalashtirish davri uchun jamlanma byudjetiga tushumlarni prognozlash metodologiyasi (Prognoz metodlari, 2017) asosida amalga oshirilishini aniqladik.

Shu bilan birga soliqqa tortishda davlat byudjeti mablag'larining defitsitini oldini olish va minimal soliq yukini ishlab chiqishda risklarni hisobga olmaslikning iloji yo'q. Soliq risklari ro'yxati har yili nazorat tadbirlari natijalari monitoringini, soliqqa tortish qonunchiligidagi o'zgarishlarni va undagi aniqlangan tirqishlarni bartaraf etilganligini, shuningdek soliq maslahatchilari xizmatining muntazam kuzatilishi va axborotni majburiy oshkor etish to'g'risidagi qonun hujjatlari doirasida "noqonuniy soliq sxemalari" potensial provayderlardan olinadigan axborotlar asosida o'tkaziladigan soliq rejalashtirishning tendensiyalarini hisobga olingan holda ko'rib chiqiladi.

Tahlillar natijasida aytish mumkinki, Avstraliya tajribasini amaliyotda qo'llash joiz va davlat soliq xizmati organlari tomonidan mumkin bo'lmagan soliq sxemalarini ochiq nashr etish kerak. Bu birinchidan soliq to'lovchilarning soliqlarni maqbullashtirishdagi noqonuniy instrumentlardan foydalanishga moyilligini pasaytirishga olib kelsa, ikkinchidan soliqlarni rejalashtirishning qonuniy doirasini yaratishga imkon beradi.

Avstraliyadan tashqari xuddi shunday tizimlar Buyuk Britaniyada, Yangi Zelandiyada va AQShda amal qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining materiallari tahlili va chet el davlatlari soliq idoralari nashrlari fiskal organlar to'qnash keladigan asosiy "soliq riski zonalari"ni alohida ko'rsatishga imkon beradi. 1-jadvalda barcha davlatlarda soliq riskining asosiy manbai sifatida soliq to'lovchilar tomonidan ofshor kompaniyalar ishtirokidagi sxemalardan foydalanishlari keltirilmoqda. Bundan tashqari, aksariyat mamlakatlar ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish, zararlarni sun'iy paydo qilish va soliq qonun hujjatlaridagi kamchiliklardan foydalanishni risk sifatida ko'rib chiqishmoqda.

AQSh soliq idoralari faoliyatini tahlili shuni ko'rsatdiki, AQShning ichki daromadlar xizmati tomonidan quyidagi ikki asosiy muammolarni hal qilish bo'yicha oxirgi yillar davomida jiddiy qadam qo'yilgan.

Birinchisi soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan a'lo natijalarga olib keladigan AQSh Soliq kodeksidagi kamchiliklarga asoslangan keng tarqalgan soliq solishdan bo'yin tovlash sxemalaridan foydalangan kompaniyalarga bog'liq muammodir. Bu sxemalar auditorlik va yuridik kompaniyalar, moliyaviy maslahatchilar va professional soliq maslahatchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

Ikkinchi muammo, aksariyat hollarda jismoniy shaxslar bilan bog'liq, ya'ni, daromadlarni noqonuniy yashirish va sun'iy xarajat va zararlarni paydo qilish sxemalari bilan bog'liqdir. Odatda ular ofshor kompaniyalardan foydalanishni ehtimol qiladilar (Mamadaminov, 2019).

AQShning ichki daromadlar xizmati tomonidan amalga oshiriladigan yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish bo'yicha choralar, kompaniyalarni soliq tekshirishida, promoterlarni tekshirishda, shuningdek, axborotlarning: professional jurnallar, gazetalar, maqolalari, internet-nashrlarning tashqi manbalari tahlilida soliq promoterlar tomonidan axborotlarni oshkor etish haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlarga asoslanadi.

O'rganilgan xorij tajribalari natijasi sifatida ta'kidlash kerakki eng birinchi navbatda soliq to'lovchilarda soliq madaniyatini o'rgatish lozim va soliqlar natijasida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajalari haqida ochiq ma'lumotlarni ommaga taqdim etish, soliq yukini kamaytirish orqali soliq to'lovchilarni norasmiy bandlar yoki o'z mablag'larini yashirishga urinayotgan tadbirkorlar sonini qisqartirish imkoni mavjud.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, soliqqa tortishni tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- **qonunchilikni qayta ko'rib chiqish:** Soliq qonunchiligini soddalashtirish va tushunarli qilish, korporativ va shaxsiy soliqlarning aniq va o'zaro mos kelishini ta'minlash;

- **soliq shakllarini birlashtirish:** qat'iy soliq to'lov tizimini yaratish, bu esa soliq doiralarni aniqlashtirish va murossasizlikni kamaytirishga yordam beradi;

- **avtomatlashtirilgan tizimlar:** elektron soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali to'lovlarni soddalashtirish;

- **o'qitish va qo'llab-quvvatlash:** soliq to'lovchilarni soliq qonunchiligi va unga oid talablar bilan tanishtirish, ulanish va yordam ko'rsatish;

- **imtiyozlarni qayta baholash:** imtiyozlarning maqsadga muvofiqligini tekshirish va ularni samarali bo'lishini ta'minlash;

- **jamoatchilikni xabardor qilish:** soliq to'lovchilarga soliqlarning ahamiyati va ularning ijtimoiy foydasi haqida ma'lumot berish;

- rivojlangan mamlakatlarning soliq xizmatlari o'z faoliyatlarini soliq risklarini kompleks baholash orqali amalga oshiradi. Risk boshqaruvi elementlariga asoslangan soliq monitoringi tizimini joriy etish, soliqqa oid qonun hujjatlari va ma'murchiligidagi muammolarni, ularning boshlang'ich bosqichlarida aniqlash imkonini beradi;

- soliq to'lovlari tushumlarini samarali prognoz qilish va rejalashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki bir tomondan, soliq tushumlari darajasining oshirilganligi o'zini oqlamasligi va byudjetga soliq tushumlarini jalb qilishda qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin, boshqa tomondan – soliq tushumlarining pasaytirilgan prognozi byudjet tizimi daromadlarining xarajatlardan ortiq bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida, byudjet mablag'larini sarflash samaradorligini pasaytiradi.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

Erizal J. et al. (2022) *Improving the Indonesian Taxation System using Tax Amnesty's Policy //WSEAS Transactions on Business and Economics.* – T. 19. – C. 876-884.

Hebous S., Keen M. (2023) *Pareto-improving minimum corporate taxation //Journal of Public Economics.* – T. 225. – C. 104952.

Jumaniyozova, F. (2024). *Yangi O'zbekistonda soliq mamuriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning ustuvor yo'nalishlari.* *Nashrlar*, 3(M), 271–273. <https://doi.org/10.60078/2024-vol3-issM-pp271-273>.

Valiyeva, S. (2024). *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari.* *Страховой рынок Узбекистана*, 1(9), 57–59. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss9/179.

Байбородина В.Г. (2010) *Налоги и налогообложение: учебное пособие / Хабаровск: РИЦ ХГАЭП, 108 с.*

Богатырева Е.Н. (2014) *Теоретические детерминанты налоговых реформ.* ISSN 2221-7347 *Экономика и право.*

Жўраев А., Сафаров Ф. (2005) *Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма.* –Т.: "Iqtisod-moliya", 48-бет.

Исаев, Ф. (2023). Теоретические соображения о влиянии налогового анализа на снижение налоговой нагрузки. *economics and innovative technologies*, 11(2), 415–421. https://doi.org/10.55439/eit/vol11_iss2/i41.

Костылева Л.В. Налогообложение как механизм регулирования неравенства населения // *Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз*. – 2011. – № 3 (15). – С. 66–77.

Мамадаминов Н. (2019) Солиқ рискларини бошқаришнинг халқаро тажрибаси // *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар* илмий электрон журнал. – Т. 1. – С. 17-18.

Методики прогноз (2017) Методики прогнозирования поступлений доходов в консолидированный бюджет Российской Федерации на очередной финансовый год и плановый период. Министерство финансов Российской Федерации, Федеральная налоговая служба. Приказ от 23 августа 2017 года N ММВ-7-1/645.

Романова Н.А. (2014) Зарубежный опыт налогообложения доходов физических лиц // *Журнал Проблемы экономики и менеджмента*. № 7 (35) стр. 50-53.

Терентьева С.Н. (2005) Сравнительная характеристика налогообложения физических лиц налогом на доходы в США и во Франции // *Финансовый менеджмент*. – № 2. – С. 78–91.

Туйчиев Ш. (2023) Ўзбекистонда кичик бизнес субъектларини солиққа тортиш тизимини ислоҳ қилиш йўналишлари // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – Т. 24. – №. 1. – С. 427-433.

Фармон (2018) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ5468-сонли фармони.

Худойқулов С., Бабаев Ш. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғини прогноз қилишнинг хориж тажрибаси // *Economics and Innovative Technologies*. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 257-266.